



Abdulla Qahhor Qo'qon shahrida kosib oilasida tug'ilgan. Otasi oq-qorani tanigan savodli odam, temirchi usta edi. Uning o'sha paytlarda bir joyda ish topib muqim ishlashi qiyin kechar, shu tufayli ular qishloqma-qishloq ko'chib yurishardi. Bunday ko'ch-ko'chlar sababli oilasi ham turli joylarda yashashga majbur bo'lardi. Bu haqida yozuvchi "O'tmishdan ertaklar"

asarida hikoya qilgandi. Bu holat, tabiiyki, bo'lg'usi adibga ko'p odamlarni o'rganish, g'aroyib voqealarning shohidi bo'lish, xalq hayotini chuqur bilish imkonini bergan.

Abdulla Qahhor O'zbekiston xalq yozuvchisi faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.



O'tmishdan ertaklar

Abdulla Qahhor

Biz Oqqo'rg'ondagi xiyla katta, o'rtasida chog'roq gulzori bor hovliga ko'chib keldik. Bir kuni dadam: "Katta masjidda qo'qonlik Muhammad qori "usuli jadid" degan yangi maktab ochgan, uch oyda bolani xat-savodli qilarmish", degan gap topib keldi.

Dadam ertasiga ertalab meni katta masjidga boshlab bordi. Masjid ichkarisidan to'ladan kelgan bir kishi yugurib chiqdi va dadam bilan so'rashgandan so'ng menga qo'l berdi. Shu choqqacha hech kim men bilan qo'l berib so'rashmagan edi. Muhammad qori domla shu ekan.

Maktabda bolalar past-baland qoqilgan sakkiz qator taxta-partada kitob o'qib, xat yozib o'tirishar edi. Domla meni gapga soldi. Dadam o'qib bergan kitoblarning nomini aytib berdim. Domla nonxo'rak oldida meni bolalarga tanitib: "Zehni o'tkir bola, maktab ko'rmasdan xat tanibdi, o'rtoq bo'linglar", – dedi.

– Tiling salgina chuchuk ekan, mayli, tural aytib yursang burro bo'lib ketadi. Qani ayt-chi: tutning tomirini turp tutib turipti, turpning tomirini tut tutib turipti!

Men bu turalni dabdurustdan aytolmadim. Ertasiga turalni domlaga sharros aytib berdim.

Undan keyin "Ustodi avval" degan kitobdan o'qish va xat mashq qilish uchun saboq oldim. Ikki oy o'tar-o'tmas, "Gulshan dilafgor", "Bolalar bog'chasi" singari kitoblarni o'qiydigan, maktub va turli hujjatlar nusxasini chiroyli qilib ko'chiradigan bo'ldim...

Kuzning boshida dadam meni "Urfon" degan yangi maktabga berdi. Bu maktabda bir oycha o'qidim... Keyinchalik Farg'ona ta'lim-tarbiya bilim yurtida o'qishni davom ettirdim.

Shunday qilib, mening bolalik va o'quvchilik yillarim Farg'onaning Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on degan qishloqlarida o'tgan.





1. Hikoya kimning tilidan aytilgan?
2. Yozuvchining bolaligi qayerlarda o'tgan?
3. Otasi uni qayerga olib boribdi?
4. Yozuvchining o'quvchilik yillari haqida nima deya olasiz?
5. Siz hikoya qahramoniga qanday ta'rif bergan bo'lardingiz?



xiyla – birmuncha, ma'lum darajada
chog'roq – o'lchami kichikroq
nonxo'rak – eski usuldagi maktabda tanaffus vaqti va shu vaqtdagi ovqatlanish joyi
sharros – tutilmasdan
tutal – tez aytish



1. Maktabdagi holat tasvirlangan gaplarni o'qing.
2. Hikoyada keltirilgan tez aytishni topib o'qing.
3. Hikoya asosida savollar tuzing.



Hikoyani o'qing va shaxsini o'zgartirib, qayta hikoya qiling.